

BIOLOGIYA 6- SINIF
1 VARIANT

1. Qaysi o'simliklarning urug'i suv o'tkazmaydigan qalin qobiqqa ega bo'lganligi uchun suv orqali uzoqlarga tarqaladi?

1.zarpechak 2.qo'ypechak 3.qurtana 4.chinor 5.saksovul

A) 1,2,3 B) 3,4,5 C) 2,4,5 D) 1,2,5

2. Bir uyli o'simliklar guruhi berilgan qatorni aniqlang?

A) qovoq, bodring, pomidor, tarvuz, yong'oq

B) gilos, olcha, qovun, bodring, terak

C) qovun, tarvuz, qovoq, bodring, yong'oq

D) makkajuxori, bug'doy, tol, gilos, qovoq

3. Bo'tako'z o'simligining to'pguli qanday to'pgulga misol bo'la oladi?

A) oddiy shingil B) kuchala C) ro'vak D) savatcha

4. Quyida berilganlardan ko'sak mevaga ega o'simlikni aniqlang?

A) no'xat B) loviya C) mosh D) chuchmoma

5. Soxta meva turini aniqlang?

A) olcha, shaftoli B) nok, behi C) olxo'ri, gilos D) o'rik, olma

6. Yapon laminariyasi qaysi turkum vakili hisoblanadi?

A) yapon turi B) laminariya turkumi C) dengiz suvo'tlari turi D) dengiz karami turi

7. Agar-agar moddasini qaysi suvo'tidan olinadi?

A) qizil suvo'tlaridan B) nemaliondan C) xaradan D) dengiz karamidan

8. Bangidevona qaysi oila vakili hisoblanadi?

A) dukkakdoshlar B) tokdoshlar C) ituzumdoshlar D) ra'nodoshlar

9. Ra'nodoshlar oilasining nechta vakili O'zbekiston Respublikasining «Qizil kitobi»ga kiritilgan?

A) 2 B) 25 C) 4 D) 8

10. Virgin archasining Vatanini ko'rsating?

A) Shimoliy Amerika B) Janubiy Amerika C) Markaziy Osiyo D) Shimoliy Yevropa

11. Funariya arxegoniysining formasi qanday tuzilishga ega?

A) silindrik B) kolbasimon C) oval D) boshcha shaklida

12. Zebu-ziyat buyumlarini tayyorlashda foydalaniladigan o'simliklarni aniqlang?

A) yersovun, tasbexmunchoq B) alqor, kokos C) sedana, murch D) zira, non daraxti

13. Quyidagi qaysi o'simliklar popuk ildiz tizim hosil qiladi: 1. g'o'za 2. lola 3. bangidevona 4. chuchmoma 5. olgi 6. xolmon 7. bo'ritaroq 8. kanop

A) 4.5.6 B) 3.4.6 C) 1.7.6 D) 7.8

14. Quyidagi qaysi o'simliklarning changchilari gultojibargning qo'shilishidan hosil bo'lgan nayga o'rnashgan: 1. Bangidevona 2. Bo'ritaroq 3. Kanop 4. G'o'za 5. Keyreuk 6. o'sma 7. tamaki

A) 2.3. B) 1.7. C) 4.5. D) 3.6

15. Qiyshiq gulga ega bo'lgan o'simliklarni aniqlang:

A) mosh, gladiolus B) karam, oq sho'ra C) gilos, qovoq D) kanop, g'o'za

16. Ituzum turkumiga mansub o'simliklarni aniqlang? 1. bangidevona 2. ituzum 3. mingdevona 4. kartoshka 5. baqlajon 6. tamaki

A) 4.1. B) 5.4. C) 2.3. D) 2.6.

17. Quyidagi qaysi o'simliklarning guli ostkosachabargga ega? 1. kungaboqar 2. lola 3. tugmachagul 4. kanop 5. g'o'za 6. sachratqi

A) 1.6. B) 5.2. C) 3.4. D) 3.4.6.

18. Asosiy to'qima o'simlikning qaysi qismida uchraydi: 1) barg 2) ildiz qinchasi 3) yosh novda 4) meva 5) havo ildizi 6) kambiy 7) lub tolalari 8) yog'ochlik 9) o'zak
A) 1.3.4.5. B) 2.4.6. C) 3.5.7.8 D) 7.8.9.
19. Laboratoriyalarda bakteriyalar va zamburug'lar kabi organizmlarni o'stirish uchun oziq sifatida nimadan qo'llaniladi ?
A) Laminariya B) Xlorella C) Agar-agar D) Nematlion
20. Yer yuzida lishayniklarni (1), zambrug'larning (2), va suvo'tlarning (3) qancha turi mavjud? a)-30000, b)-26000 c)-100000
A) 1-a, 2-b, 3-c B) 1-a, 2-c, 3-b C) 1-c, 2-a, 3-b D) 1-b, 2-c, 3-a
21. Ildiz tukchalari qancha kun yashaydi?
22. Oloy xiyoli qaysi oila vakili hisoblanadi?
23. Qoqio't o'simligining hayotiy shakli?
24. O'zbekiston «Botanika» ilmiy institutida qancha nusxa gerbariy saqlanmoqda?
25. Tokdoshlar oilasining gul formulasini belgilang?
26. Lavlagi mevasining turini aniqlang?
27. Saksovul qaysi oila vakili hisoblanadi?
28. Tashqi muhitning o'simlik hayot faoliyatiga ta'sir etuvchi ayrim tarkibiy qismiga nima deyiladi?
29. Suttikandoshlar oilasining to'pguli qanday tuzilgan ?
30. Anabazin..... oilaga kiruvchi.....o'simlikdan olinadi.

BIOLOGIYA 6- SINF
2 VARIANT

1.Laboratoriyalarda bakteriyalar va zamburug'lar kabi organizmlarni o'stirish uchun oziq sifatida nimadan qo'llaniladi ?

A) Laminariya B) Xlorella C) Agar-agar D) Nematlion

2.Yer yuzida lishayniklarni (1), zambrug'larning (2), va suvo'tlarning (3) qancha turi mavjud? a)-30000, b)-26000 c)-100000

A) 1-a, 2-b, 3-c B) 1-a, 2-c, 3-b C) 1-c, 2-a, 3-b D) 1-b, 2-c, 3-a

3.Atmosfera havosini tozaligini ko'rsatib beradigan mezonni aniqlang ?

A) Zamburug'lar B) Lishayniklar C) Bakteriyalar D) Suvo'tlar

4. Qaysi suv o'tining xromatofori belbog' shaklida bo'ladi?

A) Ulotriks B) Spirogira C) Kladofora D) Xara

5.O'simlik va hayvonlarning o'sishini tezlatishga, chorva mollarini mahsuldorligini oshirishga yordam beradigan modda qaysi zamburug'da mavjudligini aniqlang ?

A) Qalpoqchali zamburug'da B) Mog'or zamburug'ida

C) Penitsil zamburug'ida D) Achitqi zamburug'ida

6. Ituzum turkumiga mansub o'simliklarni aniqlang?

1.Bangidevona 2.Qora ituzum 3.Mingdevona 4.Kartoshka 5.Baqlajon 6.Tamaki

A) 4.1.6 B) 2.4.5 C) 2.3.6 D) 2.3.6

7.Quyidagi qaysi o'simliklarning guli ostkosachabargga ega bo'lib changchilari qo'shib o'sadi? 1.Kungaboqar 2.lola 3.Tugmachagul 4.Kanop 5.ismaloq 6.Sachratqi

A)1.6 B)2.5 C)3.4 D)3.4.6

8.Quyidagi o'simliklarning qaysilarida changchilari ko'p,iplari bir biri bilan

qo'shib, urug'chini o'rab turadi? 1.bangidevona 2. bo`ritaroq 3. kanop 4. tok 5. keyreuk 6.o`sma 7.tamaki

A) 2.3 B) 1.7 C) 4.5 D) 3.6

9. Olga sorbariyasi o'simligi qaysi oilaga mansub?

A) ra`nodoshlar B) loladoshlar C) tokdoshlar D) burchoqdoshlar

10.Qirqquloqlarni yo'sinlardan qaysi belgi asosida farqlash mumkin?

A) ildizning mavjudligi B) sporalar orqali ko`payish

C) hujayralarda xlorofillning mavjudligi D) oziqlanish usuli

11.Ismaloq qaysi oila vakili hisoblanadi?

A) Karamdoshlar oilasi B) Ra`nodoshlar oilasi

C) Sho`radoshlar oilasi D) Ituzumdoshlar oilasi

12.Qirqbo`g'imning qaysi qismida sporali boshoq hosil bo'ladi?

A) bahorgi poyaning uchki qismida B) yozgi poyaning uchki qismida

C) ildizpoyada D) yozgi poyaning asosiy poyasida

13.Suv qirqqulog'i o'simligiga xos xususiyatlarni belgilang ? 1.ildizsiz o'simlik 2.suvda o'sadi 3.barglari uchtadan joylashgan 4.to'pguli suvdan yuqoriga chiqib turadi

5.suvdagi bargi asosida sporalari joylashgan 6.hashoratxo'r o'simlik 7.urug' kurtagi tuguncha ichida rivojlanadi 8.uchunchi bargi suv ostida osilib turadi.

A)1.4.3.7.8 B)1.2.3.5.8 C)1.3.4.6.7 D)1.2.5.6.7

14.Dala qirbo`g'im va zuhrasoch qirqquloqlarning o'xshash belgilarini aniqlang?

1) ko'p yillik o't, 2) ildizmevali, 3) ildizpoyali, 4) barglari halqasimon o`rnashgan, 5) sporadan erkak va urg'uchi o'simtalar rivojlanadi, 6) sporadan ikki jinsli gemotofit

rivojlanadi, 7) spermatozoidi ko'p xivchinli, 8) spermatozoid ikki xivchinli, 9) urug'lanish suv muhitida sodir bo'ladi

A) 4,5,8,9. B) 3, 1, 6,8. C) 2,4,6. D) 1,3,7,9.

15. Besh yaproqli partenotsissusni terak bargli liftokka o'xshashligi(1) va farqi(2)ni aniqlang. a) tokdoshlar oilasiga mansub, b) poyasi ingichka,uzun, jingalaklari bilan ilashadi, c) barglari butun cheti yirik tishli, d) yotib o'suvchi buta, e) barglari panjasimon murakkab, f) gulkosachasi aniq ko'rinmaydi, h) guli toknikiga o'xshaydi

A)1-a,h; 2-b,e B)1-d,e; 2-a,h C) 1-a,h; 2-c,d D) 1-b,e; 2-b,e,f

16. Ikki urug'pallali o'simliklar sinfiga (magnoliyasimonlarga) xos xususiyatlarni yozing?

1.O'zbekistonda 700ga yaqin turi o'sadi. 2.Poyasi kambiyli, yo'g'onlasha oladi

3.Murtakdagi ildizcha tez nobud bo'ladi. 4.Bargi panjasimon yoki patsimon tomirlangan

5.Bargi yoysimon yoki parallel tomirlangan.6.Gulqo'rg'oni ko'pincha murakkab

7.Unayotgan o'simlik urug'palla bargi yer ostida qoladi

A)2.4.6 B)1.2.3.4 C)1.5.6.7 D)1.3.5.7

17.Sebarga o'simligiga xos bo'lgan belgilarni ko'rsating?

1)ko'p yillik o't, 2)bir yillik o't, 3)mevasi dukkak, 4)mevasi ko'sak, 5)chetdan changlanadi,

6)o'zidan changlanadi, 7)gullari to'g'ri, 8)gullari qiyshiq, 9)bargi uch bo'lakli

A)2,4,7,9 B)1,6,8,9 C)1,3,5,8 D)1,3,5,8,9

18.Qaysi o'simlik apreldan sentabrgacha gullaydi?

A) Jag'-jag' C) Tok B) Ituzum D)Yer bag'ir tugmachagul

19.Qaysi o'simliklarning ildiz sistemasi rivojlanmagan?

A) qirqquloqlar B) yo'sinlar C) qirqbo'g'imlar D) bir yillik o't o'simliklar

20. Qaysi o'simliklar ildizmeva hosil qiladi?

A) karam,pomidor,g'o'za B) kartoshka,sholg'om

C) sarimsoq,piyoz,sholgom D) rediska,sabzi

21.Ko'p xivchilli spermatozoidlar qirqbo'g'imning qayerida yetishadi?

22.Ra'nodoshlar(1) va Ituzumdoshlar (2) oilasiga mansub gul formulalarini aniqlang?

23.Tekoma o'simligining hayotiy shakli?

24.Tabiatning ayrim bir burchagidagi hayvonlar yoki o'simliklar qoplami ,ayrim o'simlik turlari va boshqalar saqlanadigan joy?

25.Tashqi muhitning o'simlik hayot faoliyatiga ta'sir etuvchi ayrim tarkibiy qismiga nima deyiladi?

26.Suttikandoshlar oilasining to'pguli qanday tuzilgan ?

27. Anabazin..... oilaga kiruvchi.....o'simlikdan olinadi.

28.Misr g'o'zasining vatani?

29. Qirqquloqlarning gametafiti nima yordamida tuproqqa yopishib turadi?

30. Kanop o'simligi qaysi turkumga kiradi?

BIOLOGIYA 6- SINF
3-VARIANT

1. Ra'nodoshlar oilasining nechta vakili O'zbekiston Respublikasining «Qizil kitobi»ga kiritilgan?

- A) 2 B) 25 C) 4 D) 8

2. Virgin archasining Vatanini aniqlang ?

- A) Shimoliy Amerika B) Janubiy Amerika C) Markaziy Osiyo D) Shimoliy Yevropa

3. Urug'lanish suvda kechadigan o'simliklarni belgilang.

- 1)yo'sin, 2)ochiq urug'lilar, 3)qamish, 4)sholi ,5)qirqquloq, 6)qirqbo'g'im, 7)qarag'ay
A)3,6,8 B)1,5,6 C)4,7,2 D)2,3,7

4. Qirq quloqqa xos belgilar ko'rsatilgan javobni aniqlang?

- 1) yarim buta, 2)o'tsimon o'simlik, 3)ildiz poyali, 4)poyasi ser qirra bo'gimlarga bo'lingan, 5)yozgi va bahorgi poyalari bir biridan farq qiladi, 6)barglari yirik
A)1,5,6 B)2,4,6 C)1,3,6 D)2,3,6

5. Quyidagi qaysi o'simliklarning ildizida tugunakli bakteriyalar bo'ladi? 1.Sachratqi

2.ligustrum 3.Yapon saforasi 4.Sebarga 5. Bodom

- A)1.3 B)3.4 C)4.5 D)4.2

6. Po'panak zamburug'ini oziqlanish usuli ?

- A) Parazit B) Geterotrof C) Avtotrof D) Saprofit

7. Qaysi organizm kurtaklanish yo'li bilan ko'payadi ?

- A) Penitsil zamburug'i B)Achitqi zamburug'i C)Qalpoqchali zamburug'i D) Mog'or zamburug'i

8. Qalpoqchali zamburug'ning yozgi tanasi nima hosil qiladi ?

- A) Oziq moddalar to'playdi B) Meva tana hosil qiladi
C) Sporalar hosil qiladi D) Meva tana va oyoqcha hosil qiladi

9. Meva tanasi uzun ,oyoqchasi ingichka va tepasi cho'qqaygan yupqa qalpoqchadan iborat zamburug'ni aniqlang ?

- A) Qalpoqchali zamburug' B) Qoziqorin C) Go'ng zamburug'i D) Qo'zidumba

10. Archa, qarag'ay, terakni qanday ahamiyati bor?

- A) O'zidan allergiya qo'zg'atuvchi moddalar ajratadi
B) Urug'lari shamol yordamida tarqaladi
C) O'zidan fitonsidlar ajratib turadi
D) Havoga ko'p miqdorda kislorod ajratadi

11. O'zbekistonda ikki urug'pallali o'simliklarning necha turi tarqalgan?

- A) 340 mingdan ortiq B) 37000ga yaqin C) 3000ga yaqin D) 138tur

12. Funariya arxegoniysining shakli qanday tuzilishga ega?

- A) silindrik B) kolbasimon C) oval D) boshcha shaklida

13. Ostki gulkosa bargchalari 3ta, gullari yirik ,gultojbarglari och-sariq, tubi qizil dog'siz, ko'sagi yirik 4-5 chanoqli, tolasi mayin,uzun oq,ba'zan qo'ngir g'oza turini aniqlang?

- A) Meksika g'o'zasi B) Misr g'o'zasi C) Jaydari g'o'za D) Ingichka tolali g'o'za

14. Funariya o'simligi bargining hujayralari necha qavatdan tashkil topgan?

- A)2 B) 3 C)1 D)ko'p

15. Qaysi o'simliklarda ildiz bo'lmaydi?

- A) yo'sinlar B) sershox qirqbo'g'im C)dala qirqbog'imi D)qirquloq

16. O'zbekistonda gulxayridoshlarning qancha turkum va turi uchraydi ?

A) 7-turkum, 27-tur B) 76-turkum, 200-tur C) 11-turkum, 36-tur D) 44-turkum, 200 tur

17. Quyonsuyak qaysi oilaga mansub o`simlik hisoblanadi?

A) Burchuqdoslar oilasi B) Ra`nodoshlar oilasi C) Tokdoslar oilasi D) Ituzumdoshlar oilasi

18. Bangidevona qaysi oila vakili hisoblanadi?

A) Dukkakdoslar B) Tokdoslar C) Ituzumdoshlar D) Ra`nodoshlar

19. Qaysi o`simliklarning urug`i suv o`tkazmaydigan qalin qobiqqa ega bo`lganligi uchun suv orqali uzoqlarga tarqaladi? 1.zarpechak 2.qo`ypechak 3.qurtana 4.chinor 5.saksovul

A) 1,2,3 B) 3,4,5 C) 2,4,5 D) 1,2,5

20. Bir uyli o`simliklar guruhi berilgan qatorni aniqlang?

A) qovoq, bodring, pomidor, tarvuz, yong`oq

B) gilos, olcha, qovun, bodring, terak

C) qovun, tarvuz, qovoq, bodring, yong`oq

D) makkajuxori, bug`doy, tol, gilos, qovoq

21. Ildiz tukchalari qancha kun yashaydi?

22. Barg og`izchalari nechta hujayralardan iborat?

23. Qaysi o`simlikning urug`i yashovchanlik qobiliyatini 100 yilgacha saqlab qolishi mumkinligi aniqlangan?

24. Qaysi o`simlik lentasimon spiralsimon xromotoforga ega?

25. Qovoqdoshlar oilasining mevasi qanday ataladi?

26. Sharsimon shaklga ega bakteriyalar qanday ataladi?

27. Qaysi suvo`tlar xivchinlarga ega?

28. Tokdoslar oilasining gul formulasini belgilang?

29. Lavlagi mevasining turini aniqlang?

30. Saksovul qaysi oila vakili hisoblanadi?